AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH VA MALOMATIYLIKDA NAFS MASALASI

Yazdonov Z.Sh.
SamDU o‘qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqola inson ruhiy olamini poklashda axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda malomatiylik va nafs masalasi juda muhim o'rin tutishi. Malomatiylik g’oyalaridagi nafs masalasi, insonning axloqiy qarorlarini to'g'ri qabul qilishida muhim rol o'ynaydi. O'z bilimlari orqali inson nafsini tarbiyalash, o'zini nazorat qilish va to'g'ri yo'lni tanlashda kabi jihatlari tahlil etilgan.

Kalit so’zlar: nafs,poklik axloq, odob, odat, urf, zikr, vajd, ilhom.

Malomatiylikning nafsga qarshi kurashlari uni mahv qilishga qaratilgan harakatlari tasavvuf ta’limotlarida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Mutasavvuflar asarlarida “Nafs va ruh doimo o‘zaro qarama-qarshilikda kurashda bo‘lishini uqtiradilar. Ruh nafsni o‘z olamiga tortishini, nafs o‘zo‘rnida ruhni o‘ziga tobe’ qilishga harakat qiladi. Ular ba’zan g‘olib, ba’zan mag‘lub bo‘ladilar. Qalb esa, o‘sha g‘olibga tobe bo‘ladi, baxt va baxtsizlik shu qarama-qarshilikning natijasi bo‘ladi”[1]. Demak, inson borlig‘idagi barqarorliklarni inson zohiri va botinini chuqurroq o‘rganish talab etiladi. Tasavvuf allomalari shuning uchun ham inson mohiyatini bilishda unga sirtdan emas, ichdan nazar solishga harakat qilganlar. Naqshbandiylikning ijtimoiy hayotga yaqin bo‘lgan mo‘tadil g‘oyalari insonni botinini isloh qilishga yo‘naltirilgan tamoyillarida ham buning namoyon bo‘lishini ko‘rish mumkin. Uning umumislomiy va umumtasavvuf nufuzi ham shu jihatdan yuqoridir. Haq bilan botinan va xalq bilan zohiran tamoyilli ham shunga tayanadi. Chunki insonni ijtimoiy begonalashtirgan, xilvatnishin qilib qo‘yadigan tariqatlar ham bo‘lgan. Aynan insonni ham botinan, ham zohiran mutanosibligini ta’minlashga uringan tariqatlardan biri naqshbandiylik hisoblanadi. Tariqat odobida ko‘zda tutilgan tamoyil uning zohiriy hamda botiniy olami barobar mutanosib bo‘lishini talab qiladi. Chunki insonni zohirga berilib botinni unutsa, o‘z his-tuyg‘ulari ichki, ma’naviy-axloqiy, ruhiy intizom buzilsa, kamol o‘rnini zavol egallashi ehtimoli ko‘payishiga ishonganlar. Zikrning asosi sifatidagi xilvat mohiyati yo‘qoladi. Shuning uchun u xalq bilan zohiriy va Haq bilan botiniy aloqada bo‘lishi muhim sanalgan. Bu so‘fiylarning inson tabiatini yaxshi bilganliklari, inson tabiatining muvozanati to‘g‘risidagi g‘oya desak, bo‘ladi. Jamiyatning rivoji, inson ma’naviyatining kamolotida bu muhimdir. Albatta, tariqatlar tarixidan ma’lumki, sof e’tiqodagi axloqiy g‘oyalari bilan inson va jamiyat hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan tariqat shayxlarining qarashlari, ularning amaliyoti bilan bog‘liq solih amallari xalqni har qanday holatlarda tayanchiga aylana olgan. Ularni ikki olam saodatiga erishish yo‘liga zohir va botinni poklash, nafsni jilovlash, riyokorlik, kibrlanishdan saqlanish orqali yetishga ruhlantirganlar.

“Ularning moddiy va ma’naviy olamlarini mutanosib bo‘lishiga undaganlar, ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligi xususidagi g‘oyalarini hayotiy orzu intilishlarini ro‘yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirish uchun zarur deb bilganlar. Moddiy va ma’naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o‘rinli bo‘ladi,”[2]- degan fikr ham ushbu birlikni ifodalovchi g‘oyadir. Haqiqatdan ham mana shu uyg‘unlik insonni u yashab turgan zaminni ulug‘lashini, yuksaltirishini nazarda tutadi. Bizning bobokalonlarimiz ham ushbu falsafaga rioya qilganliklari ayni haqiqat. Shu ma’noda inson o‘z maqsadlariga ana shu ikki asosga suyanishi orqali

[1] Хожа Муҳаммад Порсо.Таҳқиқот. Бухоро. Марказий АКМ Шарқ қўлёзмалари бўлими. INV /137 рақамли қўлёзма.
[2] Каримов.И. Юксак маънавият-енгилмас куч.-Тошкент: Маънавият,2008.-Б.45.

erishadi. Aks holda maqsad hosil bo‘lmasdan, inson yashash va kelajakka intilishda bir yoqlamalik goh u yon, goh bu yonga og‘ishga majbur bo‘laveradi. Zero inson eng oliy qadriyat, u buni anglashi har qanday og‘ib ketishlardan tiyilishi uchun naqshbandiylik ilgari surgan g‘oyalardan xulosa chiqarish foydadan xoli bo‘lmaydi. Undan tashqari, yana bir prinsip borki, bu insonning xalq orasidagi xilvatidan hosil bo‘ladigan ahvolini hech kim bilmasligi lozim. Ikkinchidan, uning yurish turishi shunday sifatga ega bo‘lishi kerakki, unda na riyo, na kibrga joy qolmasin. Oddiy odamlar bilan oddiy suhbatlar, munosabatlar bo‘lishi boshqacharoq, fikrlaydigan yoki yashaydigan odamlar bilan o‘sha tonda munosabatlarga kirishishi kerak bo‘ladi. Barchasi ogohlikka, hushyorlikka asoslangan bo‘lishi kerakki, inson zikrdan g‘ofil bo‘lmasin. Uning yodi, xayol va fikr olamida Haq hikmati ufurib turishi lozim. Zohiriy ko‘rinishi hech ham xalqdan ajralib turmasligi, e’tibor tortuvchi narsalar bo‘lmasligi joizdir. Tiriklikning mazmun mohiyatini anglash, o‘z hayotining mazmunini mushohada etishga o‘rgatadi. Inson olayotgan nafasi butun borlig‘ini harakatga keltirayotganini botiniy va zohiriy olamini yangilab turganini biladi. O‘zida kechayotgan o‘zgarishlar tufayli islohga kelayotgan xulq atvori ich-ichdan huzur topayotganini payqaydi. Natijada inson ham botiniy ham zohiriy tomondan o‘zini shunga munosib tutishga harakat qiladi.

Ha, shuning uchun ham olimlarimiz: “axloqning ildizi inson borlig‘ining ichida, uni ichdan tuzatilmasa maqsad vosil bo‘lmaydi”, - deb aytishadi. Uning ijtimoiy hodisaga aylanishi ham ichdan sayqallanib, kamol topishiga bog‘liqdir. Tasavvuf ta’limoti ham ana shu g‘oyani ilgari surib, insonni o‘z botiniga nazar qilishga da’vat etadi. Zero, jamiyat, muhit, zamon va makon, davr kulfatlari, axloq noqisligi, ma’naviy yemirilishlar tufayli paydo bo‘lib, insoniyatni tubanlikka mahkum etadi. Axloqan zaif va kuchsizlangan har qanday millat ojizlik va qo‘rqoqlik girdobida o‘zligini yo‘qotadi. Ma’naviy-axloqiy barqarorligini himoya eta olmaydigan xalq esa, kelajagi va avlodlar tarbiyasi, qadriyatlar vorisiyligidan mahrum bo‘ladi. Chunonchi adolat, insonparvarlik, shijoat, o‘zaro hamjihatlik boringki, xalq hayoti uchun muhim bo‘lgan qanday xislat fazilatlar bo‘lsa hamma-hammasining asosi axloqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Хожа Муҳаммад Порсо.Таҳқиқот. Бухоро. Марказий АКМ Шарқ қўлёзмалари бўлими. INV /137 рақамли қўлёзма.
2. Каримов.И. Юксак маънавият-енгилмас куч.-Тошкент: Маънавият,2008.-Б.45.
3. Караматов Х.С. Аскетические и суфийские течения в Хорасане.Из истории суфизма.Сборник статей.-Тошкент: фан, 1991.-С.28-30.
4. Книш А.Мусулманский мистицизм.-М: Диля, 2001.- С. 106-111.
5. Муҳаммад Содиқ М.Ю. Тасаввуф ҳақида тасаввур. – Т.: Мовароуннаҳр, 2004. – Б. 36.
6. Комилов Н. Ёқубов А. Марказий Осиё халқлари тафаккури ривожида тасаввуфнинг ўрни. – Б. 15-28.
7. Кныш.А.Д. Мусульманский мистицизм. – Б.113.
8. Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. – Б. 56.